



YO‘RIQNOMA-VARAQA
Biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchasini qo‘llash bo‘yicha
«FLORION»

BFQ dori vositasi hisoblanmaydi.

Tarkibi: 1 sasha-paket tarkibida:

Maltodekstrin, fruktooligosaxaridlar, bifidobakteriyalar. Laktobakteriyalar *Lactobacillus acidophilus* – 1×10^9 KOE, Bifidobakteriyalar *Bifidobacterium bifidum* – 4×10^9 KOE, Vitamin D3 – 0,007 mg (280 ME).

Qo‘llash sohasi:

Oshqozon-ichak trakti funksiyalarini va ichak mikroflorasini fiziologik me‘yorda saqlab turish uchun tavsiya etiladi. Probiotik mikroorganizmlar (lakto- va bifidobakteriyalar) hamda vitamin D3 ning qo‘shimcha manbai hisoblanadi. Tarkibida prebiotiklar mavjud.

Lakto- va bifidobakteriyalar ichak mikroflorasini hamda OVQAT HAZM QILISH tizimi faoliyatini tiklashga yordam beradi.

Prebiotiklar esa hazm yo‘lidagi foydali bakteriyalarning o‘sishi va faollashuviga ko‘maklashadi.

Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar: Ichga, ovqat vaqtida qabul qilinadi. 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga – kuniga 1 sasha. 18 yoshdan kattalarga – kuniga 1 yoki 2 sasha. Sasha tarkibini qabul qilishdan oldin suv, yogurt yoki sutda eritish mumkin.

Antibiotiklar buyurilganda, «Florion» bilan bir vaqtda emas, balki bir necha soatlik tanaffus bilan qabul qilish tavsiya etiladi. Qabul qilish muddati – 1 oy. Qo‘llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Qarshi ko‘rsatmalar:

Mahsulot tarkibiy qismlariga individual toqatsizlik, homiladorlik va emizish davri.

Chiqarilish shakli: 3 g li sasha-paketlar.

Qadoqda 10 ta sasha-paket.

Saqlash sharoiti:

25 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda va 75 % dan yuqori bo‘lmagan nisbiy namlikda saqlansin.

Yaroqlilik muddati:

2 yil.

Ishlab chiqaruvchi:

QK «AMATEG», 222520, Belarus Respublikasi, Minsk viloyati, Borisov shahri, Gertsen ko‘chasi, 15-uy.

Tel.: (+375-177) 72-18-64 www.amateg.by E-mail: info@amateg.by